Переоценка долгосрочных активов в нефтегазовой промышленности и определение финансового результата от переоценки.....	1269
<b>Махкамова Саида Гайратова</b>	
Oziq-ovqat mahsulotlari korxonalarini integratsiyalashuv jarayonlarini boshqarish samaradorligini oshirish.....	1275
<b>Xodjiev Ibroxim Ikramovich</b>	
Sug'urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligini ta'minlashning muhim shartlari.....	1280
<b>Allanazarova B.K.</b>	
P2P lending and crowdfunding as alternative sources of financing for small business in Uzbekistan.....	1286
<b>Abdurakhimova Dilara Karimovna</b>	
O'zbekistonda soliq nazoratining huquqiy va tashkiliy asoslarini takomillashtirish yo'llari.....	1290
<b>Kuziyeva Nargiza Ramazanovna, Oymatova Gulnur Mirjamolovna</b>	
Applications of hyperbolic geometry in physics and biology.....	1295
<b>Khaknazarova Khurshidabonu Kenjaevna, Otakulova Rukhshona Akram kizi</b>	
O'zbekiston temir yo'llari tizimining transformatsiyasi: modernizatsiya, raqamlashtirish va qayta tuzilish yo'nalishlari.....	1301
<b>Nasrullayev Nurbek Baxtiyarovich</b>	
The role of tourist product diversification in sustainable tourism development.....	1305
<b>Raxmonov Shuxrat Shavkatovich, Alimova Mashhura Toirxonovna</b>	
Temiryo'l transporti turi tavsifi.....	1310
<b>Shodmonbekova Nodira Kamoljon qizi</b>	
Kiberxavfsizlik: it infratuzilmasini himoya qilishning zamonaviy usullari.....	1321
<b>D. Sh. Usmanbayev</b>	
Mahalliy budjetlar daromad bazasini tahlili.....	1325
<b>Qurbonov Nuriddin Ro'ziqulovich</b>	
Развитие цифровых финансовых услуги в банковской системе Республики Узбекистан.....	1333
<b>Абдурахманова Матлуба Махамдаминовна</b>	
Avariya rejimlarida kichik yuklamali elektr ta'minoti tizimlarining kabel izolyatsiyasi monitoringini avtomatlashtirishning zamonaviy yondashuvlari.....	1339
<b>Mirzoyev Narzulla Nuriddinovich, Mamatqulov Toyir Chorshanbiyevich</b>	
Analysis of increasing the speed of information exchange between the control interface and execution mechanisms in emergency mode in intelligent systems.....	1346
<b>Azizbek Yusupbekov Nodirbekovich, Husniddin Esonov Mamarasul o'g'lu Assistant</b>	
Sa'noat korxonalari va mexatron robotlarni optimal avtomatlashtirish va boshqarishda sun'iy intellektning ahamiyati.....	1351
<b>Karabayev Ibragim Turdiyevich, Esonov Husniddin Mamarasul o'g'li, Abdullayeva Saodat Mengbayevna, Mamatqulov Toir Chorshanbiyevich</b>	
Korxonaning moliyaviy holatini baholashda zamonaviy tahlil uslublarining qo'llanilishi.....	1355
<b>Usmanova Nasiba Akbarjonovna, Suleymanova Aseel Armanovna</b>	
Xizmat ko'satish sohasida xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar va raqamli texnologiyalarning ahamiyati.....	1360
<b>Mirzayeva Shirin Nodirovna</b>	
Rekreatsiya turizmi va sog'lomlashtirish xizmatlari integratsiyasi.....	1365
<b>Shaymanova Nigora Yusupovna</b>	
Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rivojlantirishda ba'zi iqtisodiy yondashuvlarning nazariy jihatlarini.....	1369
<b>Iskandarova D.B.</b>	
Yashil (eko) investitsiyalarni tijorat banklari orqali moliyalashtirish.....	1373
<b>Kamilova Iroda Xusniddinovna</b>	
Improvement of inventory accounting audit based on international standards.....	1378
<b>Ovlayev Suhrob Temur o'g'li, Yo'ichiyev Oybek Ulug'bek o'g'li, Normo'minova Dilorom Umar qizi, Avlayeva Oybarchin Olim qizi</b>	



Artificial intelligence systems for assessing creditworthiness .....	1382
<b>Mardonova Durdona Yaxshiboy qizi</b>	
B2B bozorini rivojlantirishda raqamli marketing texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish .....	1387
<b>Samadov Askarjon Nishonovich</b>	
Tech-driven growth and the economy of the future: brics-t in the society 5.0 paradigm .....	1395
<b>Kaldibayev Nurlan Alimjanovich, Sagdullayeva Gulnora Botirovna, Durmanov, Akmal Shaimardanovich</b>	
O'zbekistonda tabiiy resuslardan olinadigan rentaning yaimdagi ulushiga tanlab olingan o'zgaruvchilar ta'siri tahlili .....	1404
<b>Tursunov Husnidin, Ibragimov Hasan</b>	
O'zbekistonda fond bozorini tartibga solish .....	1412
<b>Sultonov Sherali Nuraliyevich</b>	
Public perception of the feasibility of introducing islamic banking in Uzbekistan: a consumer perspective .....	1418
<b>Dr. Shamirova Surayo Kabildjanovna</b>	
Directions for implementing the innovative digital technologies in tourism .....	1425
<b>Norchaev Asatullo Norbutaevich</b>	
Возможности совершенствования практики финансирования инвестиционных проектов .....	1430
<b>Шомуродов Равшан Турсункулович, Хакимов Хафизбек Хамза угли</b>	
O'zbekistonda pochta aloqasi xizmatlarini ko'rsatishning transport-logistika jarayonini mintaqaviy darajada rivojlantirish yo'llarini ishlab chiqish .....	1436
<b>Palvanbayev Umidbek O'ktam o'g'li</b>	
Aksiyalar qiymatini baholashning nazariy asoslari .....	1440
<b>Botirxo'ja Aziza Faxmuddin qizi</b>	
Yashil iqtisodiyotni moliyalashtirishning rivojlanayotgan davlatlar amaliyoti tahlili .....	1444
<b>Raimjanova Madina Asrarovna, Zokirova Feruza Farxod qizi</b>	
Yashil loyihalarni davlat xususiy sheriklik asosida moliyalashtirish .....	1449
<b>Zokirova Feruza Farxod qizi</b>	
Факторы и риски, влияющие на оценку стоимости акции .....	1453
<b>Батирхужа Азиза Фахмуддин кизи</b>	
Финансовые риски в эпоху цифровой экономики: новые вызовы и способы управления .....	1458
<b>Нуруллина Камила Рустамовна</b>	
Tijorat banklarining yangi bank xizmatlarini iqtisodiy samaradorligi .....	1463
<b>Rahmatov Temur Sotiboldiyevich</b>	
Yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida ekologik innovatsiyalarning roli va amalga oshiruv mexanizmlari .....	1472
<b>Ulichkina Lyudmila Ivanovna</b>	
Эволюция профессиональных стандартов в республике узбекистан: от формирования к внедрению в сфере туризма .....	1478
<b>Гольшева Елена Вячеславовна, Ивонина Наталья Викторовна</b>	
Aligning uzbekistan's education reform with global best practices: the university of missouri as a model for systemic transformation .....	1485
<b>Azamat Sulaymonov, Laylo Yakhshiboyeva</b>	
O'zbekiston tijorat banklarining investision faolligini ta'minlash masalalari .....	1489
<b>Axmedov Shoymurod Azamat o'g'li</b>	
Kichik biznes subyektlarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash masalasi .....	1493
<b>Q.O.Tursunboyev</b>	
Adoption of green economy mechanisms in the process of diversification of construction enterprises .....	1500
<b>Yembergenova Aynur Aidosbayevna</b>	
Nomoddiy aktivlar hisobini yuritish va audit jarayonlarini takomillashtirish yo'llari .....	1506
<b>Rozmatova Umida Yuldashevna</b>	
Raqamli moliya va uni sohaga joriy etish: innovatsion salohiyat .....	1512
<b>Babadjanov Abdirashid Musayevich</b>	
Влияние корпоративной культуры на инвестиционную стратегию промышленных предприятий .....	1527
<b>Едгоров Сардорбек Самадович</b>	



Jismoniy shaxslar kreditlarining bank portfeli sifatiga ta'siri: tahliliy yondashuv.....	1533
<b>Sabirova Lobar Baxromovna</b>	
Xo'jaligini soliqaqqa tortish mexanizmini samaradorligini oshirish istiqbollari.....	1539
<b>Salimov Sherzod Baxtiyorovich</b>	
Methods of improving customs management in transforming the customs bodies into a corruption-free field.....	1544
<b>Mirzaxmedova Dilafuz Farxatovna, Tukhtabaev Jamshid Sharafetdinovich</b>	
Особенности цифровизации налоговой системы в узбекистане.....	1548
<b>Юсупов Одил Омонович</b>	
Qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarda texnologik yangiliklarni joriy etish: muammolar va imkoniyatlar.....	1554
<b>Ismailov Akmal axsudovich, G'ulomov Ilhom Akramovich</b>	
Kichik biznes subyektlarini kreditlashda raqamli bank xizmatlaridan foydalanishning afzalliklari.....	1560
<b>Madjitova Maftuna Kamiljon qizi</b>	
Tadbirkorlikda tavakkalchilikni boshqarishning nazariy asoslari.....	1564
<b>Ziyatova Sitora Baxtiyorovna</b>	
Importance of media activity in negotiations.....	1569
<b>Fariza Xoldarova</b>	
Kredit portfeli risklarini diversifikatsiya qilish strategiyalari.....	1575
<b>Hamroyev Sherzod Axtamovich</b>	
Marketing strategiyasi tushunchasi va uning turizm sohasidagi ahamiyati.....	1580
<b>Komilov Dostonbek Ro'zimboy o'g'li</b>	
Banklarining faoliyatini tartibga solish yo'llari.....	1586
<b>Umirzoqova Aziza Olim qizi</b>	
Yashil iqtisodiyot sari: kanada tajribasi asosida o'zbekiston uchun istiqbollar.....	1590
<b>Muratbaeva Eleonora Muxamedjan qizi, Norboyev Odil Abrayevich</b>	
Aholi hayotiylik sifatining statistik tahlili.....	1595
<b>Ostonaqulov Dilshod Ismatilla o'g'li</b>	
Davlat moliyasini isloh qilish sharoitida budjet jarayonini takomillashtirish.....	1602
<b>Sholdarov Dilshod Azimiddin o'g'li, Shamsitdinova Xonzoda Mardonbek qizi</b>	
Recent trends in the global stock market: a macro-level analysis with emphasis on asia and central asia (2023–2025).....	1612
<b>Mamataliev Bobur Saidnazar ugli</b>	
Barqaror rivojlanishni ta'minlashda "yashil iqtisodiyot"ning o'rni.....	1617
<b>Murodov Sardor Nurali o'g'li, Toxirov Shodiyor Zafar o'g'li</b>	
Aholi daromadlari va ta'lim darajalarini turmush darajasiga ta'sirini baholash.....	1623
<b>Xusinov I.I.</b>	
Soliqlarni yig'iluvchanligini oshirish istiqbollari.....	1630
<b>To'xsanov Qudratillo Nozimovich</b>	
Qoraqalpog'iston respublikasida xizmat ko'rsatishni rivojlantirish muammolari.....	1635
<b>Mirzayev Qulmamat Jonuzoqovich, Tleymuratov Bahadir Genjemuratovich</b>	
Forecasting and mitigating risks in international projects based on financial management principles.....	1641
<b>Oripova Saodat Mirfotikh kizi</b>	
Uglerod chiqindilarini buhgaletariya hisobiga integratsiya qilish: o'zbekiston iqtisodiyotida barqaror rivojlanish vositasi sifatida.....	1646
<b>Halilov Sherzod Akhmatovich</b>	
Contribution margin, dol, and break-even analysis: a financial performance comparison of amazon and walmart (2020–2024).....	1657
<b>Kodir Gulomov</b>	
Yashil iqtisodiyot: mohiyati, tushunchasi va rivojlanish tamoyillari.....	1664
<b>Ataniyazova Maksuda Baltabayevna</b>	
Beqarorlik sharoitida korxonalar ishlab chiqarish potensialidan foydalanishning optimallashtirish.....	1669
<b>Jalilov Bahrom Sotiboldievich</b>	
Innovatsion infratuzilmani rivojlantirish orqali xizmat sektorining raqobatbardoshligini hamda ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirish.....	1674
<b>Musinov Dilshod Sultanovich</b>	



Davlat tibbiyot tashkilotlarida tovar – moddiy zaxiralar harakatini hujjatlashtirish.....	1680
<b>Kuliboyev Azamat Shonazarovich</b>	
Bank likvidligini boshqarishda valyuta kursi barqarorligini ta’minlash mexanizmlari.....	1686
<b>Sattorova Nasiba G’anijon qizi</b>	
Davlat xizmatlarining raqamlashuvi va tadbirkorlikka ta’siri.....	1690
<b>Sattarov Xayrulla Fayzullayevich</b>	
Iqtisodiy tizimda risk va uning xususiyatlari.....	1694
<b>Nasimov Ravshanjon Azimovich</b>	
Sanoat korxonasi faoliyatida ishlab chiqarish salohiyatining o’rni va roli.....	1701
<b>Xudoyorova Mehrangiz Murodovna</b>	
Xorijiy kapital va uning milliy iqtisodiyotdagi o’rni: nazariy-metodologik asoslar.....	1705
<b>Abdullayev Zoxid Xolxo’jayevich</b>	
Mahallalarda tadbirkorlikni va hunarmadchilikni rivojlantirishni boshqarishning ilmiy-nazariy jihatlarini.....	1710
<b>Tuxtasinov Zafarjon Odiljonovich</b>	
Valyuta-moliya munosabatlari va globallashtirish jarayonlarining iqtisodiy mohiyati .....	1714
<b>Gulmurodova Marjona Olimjon qizi, Jo’rabekova Xumora Muzaffar qizi, Yuldasheva Umida</b>	
Tijorat banklarida aholi omonatlarini jalb qilish va ularning jozibadorligini oshirish strategiyalari: iqtisodiy va raqamli yondashuvlar .....	1719
<b>Xakimov Zoxid Norbo’tayevich</b>	
Davlat tibbiyot tashkilotlarida tovar – moddiy zaxiralar harakatini hujjatlashtirish.....	1725
<b>Kuliboev Azamat Shonazarovich</b>	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida inson kapitali sifatini oshirishda ta’limning ahamiyati.....	1731
<b>M.Ostanova</b>	
“Yashil” iqtisodiyotga o’tish davrida hududlar soliq salohiyatini va ularni oshirish masalalari .....	1736
<b>Baxtiyrov Umid Kaxramon o’g’li</b>	
Перспективы и инновационные подходы в методологии управления денежными потоками .....	1741
<b>Машарипова Шахло Адамбаевна</b>	
Soliq to’lovchilarning majburiyatlari bajarilishini ta’minlashning gnoseologik asoslari xususida.....	1746
<b>Abdusherozov Abdullo Baxtiyrovich</b>	
Mintaqaviy turizmni rivojlanishi va xavfsizligini ta’minlashda turizm infratuzilmasining o’rni va ahamiyati (xorazm viloyati timsolida) .....	1753
<b>Doschanov Tangirbergen Doschanovich, Ruzmetova Shoira Shuxrat qizi</b>	
Turizm destinatsiyalarida turistik mahsulotni yaratish jarayonining tahlili.....	1759
<b>Tursunova Gulmira Rabbonovna</b>	
Samarqand viloyatiga jalb qilingan investitsiyalarning tarkibiy tahlili.....	1764
<b>Bektemirov Abdumalik Bektemirovich, Ergasheva Aziza Xasan qizi</b>	
Davlat organlari ichki audit tuzilmalari tomonidan samaradorlik auditini tashkil etish masalalari.....	1773
<b>Nasimov Fazliddin Sirojevich</b>	
Совершенствование методологических основ внедрения цифровых финансовых активов.....	1777
<b>Якубова Ш.Ш.</b>	
O’zbekistonda turizm sohasi ko’rsatkichlari tahlili .....	1783
<b>Ayubov Ilyos Ilxomovich</b>	



# O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASI KO'RSATKICHLARI TAHLILI



**Ayubov Ilyos Ilxomovich**

Samarqand Iqtisodiyot va Servis Instituti,  
i.f.f.d., PhD, dotsent

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada turizm sohasi hozirgi vaqtda dunyo mamlakatlari miqyosida ularning iqtisodiy holatiga ijobiy ta'sir etuvchi eng qudratli sohalardan biri hisoblanishi, shuningdek, bu sohaning O'zbekiston Respublikasining milliy iqtisodiyotining tabiiy o'sish sur'atlariga ijobiy ta'sir ko'rsatayotgani hamda amalga oshirilayotgan ishlar turizmga investitsiyalar hajmini oshirishga qaratilgani haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** turizm, statistik ko'rsatkichlar, xorijiy sayyohlar, ichki turizm, xizmatlar eksporti, turizm infratuzilmasi, iqtisodiy tahlil.

**Abstract:** This article discusses the fact that the tourism sector is currently considered one of the most powerful sectors worldwide that positively affects the economic situation of countries. It also positively influences the natural growth rates of the national economy of the Republic of Uzbekistan, and the ongoing activities are aimed at increasing the volume of investment in tourism.

**Key words:** tourism, statistical indicators, foreign tourists, domestic tourism, export of services, tourism infrastructure, economic analysis.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается, что сфера туризма в настоящее время является одной из самых мощных отраслей, оказывающих положительное влияние на экономическое положение стран мира, а также положительно влияющая на темпы естественного роста национальной экономики Республики Узбекистан. Кроме того, проводимая работа направлена на увеличение объемов инвестиций в туризм.

**Ключевые слова:** туризм, статистические показатели, иностранные туристы, внутренний туризм, экспорт услуг, туристическая инфраструктура, экономический анализ.

## KIRISH

O'zbekiston Respublikasi so'nggi yillarda turizm sohasining iqtisodiy salohiyatini kuchaytirish va uni barqaror taraqqiyot omiliga aylantirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Turizmning nafaqat madaniy-ma'naviy almashinuvda, balki iqtisodiy rivojlanish, ish o'rnlari yaratish va eksport hajmini kengaytirishdagi roli tobora kuchayib bormoqda. Turizm sohasi mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi (YalM) ulushini oshirish, mintaqaviy iqtisodiy faollikni kuchaytirish hamda xorijiy investitsiyalarni jalb etishda strategik ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois, davlat tomonidan bu soha uchun huquqiy, institutsional va infratuzilmaviy asoslar yaratilib, uning statistik ko'rsatkichlari izchil monitoring qilinmoqda. Turizmning mamlakat miqyosidagi ko'rsatkichlarini chuqur tahlil qilish orqali uning makroiqtisodiy jarayonlardagi o'rnini aniq belgilash, zaif nuqtalarni aniqlash hamda kelajakdagi ustuvor vazifalarni belgilash imkoniyati vujudga keladi. Ayniqsa, sohadagi o'zgarishlarni yillik kesimda solishtirish, pandemiya ta'sirini baholash va tiklanish sur'atlarini ko'rsatkichlar orqali aniqlashtirish zaruriy masala bo'lib qolmoqda. Turizm sohasi bugungi kunda faqat xizmatlar sektori bilan cheklanmasdan, balki transport, qurilish, savdo va kommunikatsiya kabi ko'plab tarmoqlar bilan uzviy integratsiyalashgan tizimga aylangan.



Xorijiy sayyohlar soni O'zbekistonda turizm sohasining asosiy ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2016-yilda mamlakatga tashrif buyurgan xorijiy sayyohlar soni 2 milliondan biroz oshiq bo'lgan bo'lsa, 2019-yilda bu ko'rsatkich 6,7 million nafarga yetgan. Bu esa atigi uch yil ichida deyarli 2,5 barobarga o'sishni anglatadi. Bunday keskin o'sishga sabab bo'lgan asosiy omillar orasida vizaviy soddalashtirish siyosati, yangi xalqaro aviareyslarning ochilishi, xorijiy OAVdagi faol reklama kampaniyalari va turistik infratuzilmaning jadal rivojlanishi alohida o'rin tutadi. Ayniqsa, elektron viza tizimi, qisqa muddatli vizasiz rejimlarning 90 dan ortiq mamlakat fuqarolari uchun joriy etilishi O'zbekistonning turistik jozibadorligini oshirdi. Shuningdek, milliy aviakompaniyalarning yangi yo'nalishlar ochgani, aeroportlar infratuzilmasining modernizatsiya qilinishi ham sayyohlar oqimining oshishiga xizmat qilmoqda. Biroq 2020–2021-yillarda global pandemiya sababli bu ko'rsatkichda keskin pasayish kuzatildi. Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yildan boshlab sayyohlar oqimi asta-sekin tiklanib, 2024-yilga kelib 5,2 million xorijiy mehmon qayd etilgan. Bu esa pandemiyadan keyingi tiklanishning bosqichma-bosqich amalga oshayotganini ko'rsatadi. Sayyohlar geografiyasi ham kengayib, Yevropa, Osiyo va Yaqin Sharq davlatlaridan tashrif buyuruvchilar soni ortgan.

Ichki turizm O'zbekistonda iqtisodiy faollikni taqsimlash va aholi uchun qulay dam olish imkoniyatlarini yaratish vositasi sifatida strategik ahamiyat kasb etmoqda. Statistika ma'lumotlariga ko'ra, 2019-yilda mamlakat bo'ylab sayohat qilgan mahalliy turistlar soni 14 million nafarni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2023-yilga kelib 18 milliongacha oshgan bo'lib, ichki turizm segmentining jadal o'sib borayotganini ko'rsatadi. Ichki sayohatlar, asosan, tarixiy shaharlar (Samarqand, Buxoro, Xiva), tabiiy landshaftlar (Toshkent viloyatidagi tog'li hududlar, Farg'ona vodiysi) hamda diniy ziyorat maskanlari (Hazrati Imom, Qashqadaryodagi Shayx Zayniddin bobo) bo'ylab amalga oshirilmoqda. Aholining real daromadlarining oshishi, yo'l-transport infratuzilmasining yaxshilanishi, dam olish kunlarida turli festivallar va madaniy tadbirlarning ko'paygani mahalliy sayyohlik faoliyatini qo'llab-quvvatlamoqda. Shu bilan birga, ichki turizm bozorida raqobat muhitining shakllanayotgani, oilaviy va yoshlar turizmi yo'nalishlarining rivojlanayotgani ijobiy holatlardandir. Biroq narx-navo muvozanati, xizmat sifati, bron qilish tizimlarining raqamlashtirilishi kabi muammolar ichki turizmga to'liq salohiyatga erishishga hali ham to'sqinlik qilmoqda. Mahalliy hokimiyatlar tomonidan turizm klasterlari doirasida hududiy mahsulotlarni targ'ib qilish, "bir kunlik turizm" konsepsiyasini rivojlantirish ham ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan.

Turizm xizmatlari eksporti O'zbekiston iqtisodiyotida muhim valyuta manbalaridan biri sifatida shakllanmoqda. 2019-yil yakunlariga ko'ra, turizm xizmatlaridan kelgan eksport tushumi 1,3 milliard AQSH dollaridan oshgan. Bu ko'rsatkich, xizmatlar sektori eksportining umumiy hajmida turizmning salmog'i ortayotganidan dalolat beradi. Eksport daromadlari asosan mehmonxona va joylashtirish xizmatlari, ovqatlanish, ekskursiya, transport, eksklyuziv turistik paketlar va sovg'alar savdosidan shakllanadi. So'nggi yillarda xorijiy sayyohlarning xarajat qiluvchanligi o'smoqda, bu esa turizmning yuqori qo'shilgan qiymat yaratuvchi tarmoq ekanligini ko'rsatadi. Pandemiya yillarida ushbu eksport hajmi pasaygan bo'lsa-da, 2022-yildan boshlab barqaror tiklanish boshlangan. Mamlakatning "ochiq osmon" siyosati, xalqaro brend mehmonxonalar tarmog'ining kirib kelishi, yangi aeroportlar va temiryo'l yo'nalishlarining ishga tushirilishi eksportni rag'batlantiruvchi omillar sifatida namoyon bo'lmoqda. Raqamli texnologiyalarning joriy etilishi — masalan, "E-tourism" platformalari, mobil ilovalar orqali bron qilish va to'lov tizimlari — eksport samaradorligini oshirishda xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, xalqaro hamkorlik, masalan, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti, ISESCO, UNWTO bilan tuzilgan shartnomalar turizm eksportining geografiyasini kengaytirishga xizmat qilmoqda.

Mamlakatimizda turizmni yanada rivojlantirish va mazkur sohani iqtisodiyotning ustuvor tarmog'i sifatida mustahkamlash maqsadida qator me'yoriy-huquqiy asoslar yaratildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi O'QRQ-549-sonli Qonunida turizm subyektlari faoliyatini tartibga solish, ularning huquqiy maqomini aniqlash va sayyohlar huquqlarini himoya qilish kabi masalalar o'z aksini topgan.

Shu bilan birga, 2022–2026-yillarda O'zbekiston Respublikasida turizmni rivojlantirish strategiyasi doirasida mintaqaviy turizm klasterlari tashkil etilishi, raqamli turizm xizmatlarini kengaytirish, ekologik va ziyorat turizmi bo'yicha yangi yo'nalishlar ishlab chiqilishi belgilangan.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston turizm sohasi bo'yicha so'nggi yillarda olib borilgan ilmiy va amaliy tadqiqotlar ko'plab muhim manbalarni shakllantirgan. Ushbu manbalar turizmning statistik tahlili, iqtisodiy o'sishdagi roli, investitsion salohiyati va hududiy rivojlanishdagi o'rini chuqur tahlil qilish imkonini beradi.

Birinchi navbatda, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi tomonidan har yili e'lon qilinadigan rasmiy hisobotlar, byulletenlar va ma'lumotnomalar turizm sohasi rivojining raqamli ifodasini beradi. Bu ma'lumotlar son va sifat jihatidan ishonchli bo'lib, ilmiy tahlillar uchun asosiy statistik baza hisoblanadi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi tomonidan tayyorlangan tahliliy sharhlar, strategiyalar va hududiy dasturlar turizm infratuzilmasi, xizmatlar sifati, xorijiy va mahalliy sayyohlar



oqimi bo'yicha muhim ma'lumotlar manbai hisoblanadi. Xususan, "2030-yilgacha mo'ljallangan Turizm strategiyasi"da turizmning barcha tarmoqlariga oid asosiy ko'rsatkichlar va prognozlar keltirilgan.

O'zbekiston va xorijiy olimlar turizmni rivojlantirishda investitsiyalar bilan bog'liq muammolar doirasida uning turli jihatlarini bilan shug'ullanganlar. Bular jumlasiga L. Dj. Gitman, M. D. Djonk, V. S. Bogolyubov, V. P. Orlovskaya, S. A. Byistrov, M. G. Voronova, L. S. Tarasevich, Yu. F. Volkov, V. S. Senin, S. A. Sevastyanova, A. D. Chudnovskiy, E. I. Kopacheva, D. G'. G'ozibekov, N. E. Ibadullaev, I. I. Ergashev kabi olim va mutaxassislarini kiritish mumkin.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda statistik tahlil, taqqoslash, dinamik ko'rsatkichlar tahlili va grafik usullardan foydalanildi. Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, Turizm va madaniy meros vazirligi, UNWTO va boshqa ochiq manbalardan olindi. 2018–2024-yillar oralig'idagi ko'rsatkichlar asosida tahliliy tendensiyalar ishlab chiqildi. Shuningdek, xorijiy mamlakatlar bilan solishtirma tahlil o'tkazildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasida turizm sohasi so'nggi yillarda iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan muhim ahamiyat kasb etayotgan tarmoqlardan biriga aylangan bo'lib, uning rivojlanish dinamikasi barqaror o'sish tendensiyasini namoyon qilmoqda. Turizm faqatgina xizmatlar sektori doirasidagina emas, balki mamlakatning xalqaro imijini mustahkamlash, valyuta tushumlarini oshirish, hududiy rivojlanish va jamiyatdagi ijtimoiy faollikni kuchaytirishda ham muhim rol o'ynamoqda. Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2017–2019-yillar davomida xorijiy sayyohlar soni 2,5 barobarga oshib, 2,6 milliondan 6,7 milliongacha yetgan. Bunday o'sish dinamikasi mamlakatda so'nggi yillarda olib borilayotgan islohotlar, vizaviy tartiblarning liberallasuvi, xalqaro aviayo'nalishlarning kengaytirilishi hamda turistik xizmatlar sifati oshirilgani bilan bevosita bog'liq. Shu bilan birga, O'zbekistonning xalqaro sayyohlik ko'rgazmalari va forumlardagi faolligi, raqamli reklama platformalaridan foydalanish, madaniy meros obyektlarining restavratsiyasi ham turistik oqimni rag'batlantirgan muhim omillar sirasiga kiradi.

2020–2021-yillarda butun dunyo bo'ylab yuzaga kelgan global COVID-19 pandemiyasi O'zbekiston turizm sohasiga ham salbiy ta'sir ko'rsatdi. Xususan, xalqaro chegaralarning yopilishi, aviaqatnovlarning to'xtashi, sanitariya-profilaktika talablarining kuchayishi sababli xorijiy sayyohlar sonida keskin pasayish qayd etildi. Bu holat sohadagi o'sish sur'atlarini vaqtincha to'xtatib qo'ydi. Biroq hukumat tomonidan qabul qilingan pandemiyadan keyingi tiklanish strategiyasi natijasida, 2022-yildan boshlab turizm sektori asta-sekin jonlanishni boshladi. Turistik xavfsizlik standartlarining joriy etilishi, sanitariya talablari asosida xizmat ko'rsatish, ichki va tashqi reklama kampaniyalarining qayta faollashtirilishi sohaga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Natijada, 2024-yilga kelib xorijiy turistlar soni 5,2 million nafarni tashkil etdi. Bu esa pandemiya oqibatlarini nisbatan yengillashtirish va tiklanish bosqichining muvaffaqiyatli kechayotganini ko'rsatadi.

Ichki turizm ko'rsatkichlari ham so'nggi yillarda ijobiy yo'nalishda rivojlanmoqda. 2019-yilda mamlakat bo'ylab sayohat qilgan mahalliy sayyohlar soni 14 million nafarni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023-yilda 18 millionga yetgan. Bu o'sish aholining dam olish madaniyati shakllanib borayotganidan, ichki transport infratuzilmasining yaxshilanayotganidan va arzon narxlardagi turistik paketlar mavjudligidan dalolat beradi. Ichki turizmning faollashuvida, ayniqsa, dam olish kunlari va ta'til mavsumlarida uyushgan sayohatlar sonining ortgani, oilaviy turizm, yoshlar sayohatlari va ziyorat turizmi kabi yo'nalishlarning ommalashgani muhim omil sifatida ta'kidlanadi. Shu bilan birga, turizmning regionlararo taqsimlanishi ham mintaqaviy iqtisodiy faollikni qo'llab-quvvatlab, yangi xizmat tarmoqlarining shakllanishiga zamin yaratmoqda.

O'zbekiston turizm xizmatlari eksporti borasida ham ijobiy natijalarga erishmoqda. 2019-yil yakunlariga ko'ra, turizm eksporti hajmi 1,3 milliard AQSH dollaridan oshgan. Bu ko'rsatkich mamlakat iqtisodiyotida turizm sektorining real iqtisodiy salmog'ini belgilaydi. Eksportdan tushgan daromadlar asosan xorijiy sayyohlar tomonidan amalga oshirilgan xarajatlar — joylashtirish, ovqatlanish, transport, ekskursiya, eksklyuziv xizmatlar va boshqa turistik mahsulotlar orqali shakllanadi. Ushbu ko'rsatkichlar O'zbekistonning xizmatlar eksportida turizmning strategik ahamiyatga ega bo'layotganidan dalolat beradi. Valyuta tushumlari va to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar oqimi orqali iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga ham bilvosita ijobiy ta'sir ko'rsatilmoqda. Biroq bu salohiyatni to'liq ro'yobga chiqarish uchun eksportga yo'naltirilgan turistik mahsulotlar diversifikatsiyasi, logistika tizimining takomillashuvi va xalqaro marketing strategiyalarining kuchaytirilishi zarur.

Shu bilan birga, turizm infratuzilmasining kengayishi ham sohaning rivojlanish sur'atlarini yaqqol aks ettirmoqda. So'nggi yillarda mamlakat bo'ylab yangi mehmonxonalar, xostellar, ekologik dam olish maskanlari va zamonaviy sayyohlik yo'nalishlari soni 3 barobarga oshgani qayd etilgan. Bu jarayonlar davlat-xususiy sheriklik modeli asosida amalga oshirilmoqda. Xususan, investitsion loyihalar doirasida chet ellik hamkorlar bilan hamkorlikda tashkil etilgan mehmonxona tarmoqlari va transport xizmatlari sohaga yangi texnologiyalar va



xizmat sifatini olib kirmoqda. Bundan tashqari, sayyohlarga qulay muhit yaratish maqsadida axborot markazlari, gid xizmatlari, onlayn bron qilish platformalari va mobil ilovalar joriy etilgan. Infratuzilmaning kengayishi esa nafaqat turistik oqimni oshiradi, balki mahalliy aholi uchun yangi ish o'rinlari yaratilishiga ham xizmat qiladi. Shu jihatdan, turizm sektori ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning muhim qismiga aylanmoqda.

Umuman olganda, O'zbekistonda turizm sohasi bo'yicha qayd etilayotgan statistik ko'rsatkichlar ushbu sohaning mamlakat iqtisodiyotida barqaror va strategik o'sish manbalaridan biriga aylanayotganini yaqqol tasdiqlaydi. Sektorning tiklanish sur'atlari, ichki va tashqi sayyohlik oqimi, eksport salohiyati va infratuzilmaning jadal rivoji O'zbekistonni mintaqada raqobatbardosh turistik markazlardan biriga aylantirish uchun zarur zamin yaratmoqda. Endilikda asosiy vazifa — mavjud salohiyatni to'liq ishga solish, xizmatlar sifatini xalqaro standartlarga moslashtirish hamda turizmni barqaror rivojlanishning tarkibiy qismiga aylantirishdir.

### 1-jadval<sup>1</sup>. O'zbekiston Respublikasida ichki turizm ko'rsatkichlari

Klassifikator	2018	2019	2020	2021	2022	2023
O'zbekiston Respublikasi	41547,0	532544,0	176646,0	522009,0	538938,0	728581,0

Ichki turizm ko'rsatkichlari shuni ko'rsatmoqdaki, so'nggi yillarda raqamlar keskin oshgan va bu holat ichki turizmni rivojlantirish borasida amalga oshirilgan ishlar mahsuli sifatida qaralmoqda. 2018-yilda 41 547,0 nafar kishi ichki turizm ishtirokchisi bo'lgan bo'lsa, 2019-yilda bu ko'rsatkich 532 544,0 nafarni tashkil qilgan. Bu esa sezilarli o'sish natijasidir.

2020-yilda esa bu ko'rsatkich keskin pasaygan, chunki bu davr COVID-19 pandemiyasi davriga to'g'ri keladi va ekstremal xavfli sharoitda ichki turizm raqamlari ancha past darajani namoyon etgan (176 646,0 nafar). 2021–2022-yillarda esa bu holat tiklanish bosqichiga o'tgan bo'lib, mos ravishda 522 009,0 va 538 938,0 nafar ishtirokchini qayd etgan. 2023-yilda esa ichki turizm o'zining eng yuqori cho'qqisiga erishgan — 728 581,0 nafar ishtirokchi qayd etilgan.

Bu natijalar shuni anglatadiki, mamlakatimizda nafaqat tashqi turizm, balki ichki turizm salohiyati ham sezilarli darajada ortib bormoqda va keyingi yillarda ham bu ko'rsatkich yanada yuqori bo'lishi prognoz qilinmoqda.

### XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston Respublikasi turizm sohasini iqtisodiy taraqqiyotning muhim yo'nalishi sifatida belgilagan holda, so'nggi yillarda uni ustuvor strategik tarmoq sifatida rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Mavjud statistik ma'lumotlar tahlili asosida aniqlanishicha, bu yo'nalishda nafaqat miqdoriy o'sish, balki sifat jihatidan ham sezilarli ijobiy tendensiyalar kuzatilmoqda. Xususan, xorijiy sayyohlar oqimining ko'payishi, ichki turizm faolligining ortishi, xizmatlar eksporti hajmining kengayishi va turizm infratuzilmasining jadal rivojlanishi umumiy iqtisodiy barqarorlikka bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Turizm sektori tobora ko'proq ish o'rinlari yaratishda, hududiy iqtisodiy faollikni kuchaytirishda va xalqaro maydondagi imijni mustahkamlashda strategik ahamiyat kasb etmoqda.

Turizm ko'rsatkichlarining tizimli tahlili bu sohaga oid o'sish faqat miqdoriy emas, balki sifat jihatidan ham yuksalayotganini ko'rsatadi. Xususan, mehmonxonalar, xostellar, yo'l ko'rsatkichlari, logistika va ovqatlanish xizmatlarining geografik qamrovi kengayib, xalqaro standartlarga yaqinlashmoqda. Bunday infratuzilmaviy yondashuvlar sayyohlar tajribasining ijobiy shakllanishiga va mamlakatga bo'lgan ishonchning mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda. Turistik xizmatlar eksporti sohasida qayd etilayotgan yuqori o'sish sur'atlari esa valyuta tushumlarining ko'payishiga, shu orqali to'lov balansining barqarorlashuviga xizmat qilmoqda. Bu holat, ayniqsa, pandemiyadan keyingi davrda iqtisodiy tiklanishning muhim turtkilaridan biri sifatida talqin etiladi.

Biroq o'tkazilgan hududiy tahlillar ayrim joylarda turizm salohiyatining to'liq ishga solinmayotganini ham ko'rsatmoqda. Xususan, chekka va tog'li hududlarda turistik infratuzilmaning yetarli emasligi, yo'l-transport tizimining zaifligi, axborot-resurslarning kamligi va marketing faoliyatining sustligi sayyohlar oqimini cheklab qo'yimoqda. Natijada, mintaqalar o'rtasidagi iqtisodiy nomutanosiblik kuchayishi va mavjud imkoniyatlarning noto'g'ri taqsimlanishi holatlari yuzaga kelmoqda. Bu esa resurslardan samarali foydalanishni cheklab, milliy turizm strategiyasining to'liq amalga oshirilishiga to'sinlik qilishi mumkin.

1 O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Rasmiy sayti: <https://stat.uz>



Xalqaro tajribadan ma'lumki, turizm sohasini muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun bir nechta zaruriy omillar mavjud. Birinchidan, real vaqtlilik statistik tahlil tizimini shakllantirish va indikatorlarga asoslangan boshqaruv mexanizmlarini yo'lga qo'yish muhim. Ikkinchidan, hududiy turizm klasterlarini yaratish orqali mintaqaviy resurslar va xizmatlarni uyg'unlashtirish lozim. Uchinchi muhim yo'nalish — raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, jumladan, onlayn bron qilish tizimlari, virtual gidlar, raqamli to'lovlar va turistik axborot platformalarini rivojlantirishdir. To'rtinchidan, turizm bo'yicha malakali kadrlar tayyorlash va mavjud kadrlarni qayta tayyorlash orqali inson kapitalining sifatini oshirish talab etiladi. Aynan mana shu asosiy yo'nalishlar sektorning barqaror va raqobatbardosh rivojlanishini ta'minlaydi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, so'nggi yillarda davlat siyosati darajasida turizmga oid qator muhim qaror va farmonlar qabul qilindi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5611 va PF-4861-sonli farmonlari orqali turizmning huquqiy asoslari mustahkamlandi, moliyaviy va fiskal rag'batlar belgilandi, sarmoyalar uchun qulay muhit yaratildi. Ushbu hujjatlar mamlakatda investitsiya jalb qilishni jadallashtirdi, xususi sektorni faol jalb etish imkonini berdi va xalqaro hamkorlik asoslarini kuchaytirdi. Natijada, O'zbekiston xalqaro turizm reytinglarida o'z mavqeini mustahkamlab bormoqda, xorijiy OAVlarda ijobiy imij shakllanmoqda va mamlakat global turizm xaritasida yanada faol ishtirok eta boshladi.

Turizm sohasi O'zbekiston iqtisodiyotining ko'p tarmoqli va yuqori salohiyatga ega bo'lgan yo'nalishlaridan biridir. To'g'ri boshqaruv, zamonaviy marketing strategiyalari, mintaqaviy yondashuv va xalqaro integratsiya orqali bu sohani iqtisodiy o'sishning barqaror dvigateliga aylantirish mumkin. Yaqin istiqbolda O'zbekistonning turizm sohasi ko'rsatkichlari nafaqat son, balki sifat jihatdan ham yuqori bosqichga chiqishi, ushbu sektor orqali ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga sezilarli hissa qo'shilishi kutilmoqda.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi Qonuni. 2019-yil. <https://lex.uz/docs/-4428097>
2. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Rasmiy sayt: <https://stat.uz>
3. OECD (2022). Innovation Policy Platform. URL: <https://www.oecd.org/innovation>
4. "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonun. 2019-yil. URL: <https://lex.uz>
5. Innovatsion rivojlanish vazirligi axborot byulleteni. 2023-yil.
6. Abdurahmonov D. Innovatsion iqtisodiyot asoslari. Toshkent, 2021.
7. Saydahmedov A. Investitsiya faoliyati nazariyasi va amaliyoti. Toshkent, 2020.
8. Саидов А.Ф. Организационно-экономические механизмы управления туризмом Республики Узбекистан. Дис. ... док. экон. наук. Тошкент, 1994. – 252 с.
9. Safarov B.Sh. Milliy turistik xizmatlar bozorini innovatsion rivojlantirishning metodologik-uslubiy asoslarini takomillashtirish: iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – S.: SamISI, 2016. – 254 b.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

**2025. № 5**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>